

## O'QUVCHINI RAG'BATLANTIRISHNING OLTIN QOIDALARI

**Mingboeva M**

*Andijon davlat texnika instituti akademik litsey  
Ijtimoy fanlar kafedrasida tarix fani o'qituvchisi*

Ta'limda rag'bat — muhim:

Yaxshi xulqlarni shakllantirishda, yomon xulqlardan saqlashda qo'llaniladi.

Ammorag'batlantirish, maqtashning ham mutaxassislar taklif qilgan yo'llarini bilasizmi?

Quyida ba'zilarini keltirib o'tamiz:

1. Mutaxassislar nafaqat o'quv faoliyati natijalariga ko'ra yuqori ko'rsatkichli o'quvchilarni, balki o'zining mehnatsevarligi, yordamga tayyorligi, mas'uliyatli yondashuvi, jonbozligi uchun ham bolalarni taqdirlashni to'g'ri, deb baholaydilar.

2. Rag'batlantirish harakatga mutanosib bo'lishi, ya'ni bola uchun odatiy, "ikki qadamli" ish bo'lib qolgan yoki zamirida qandaydir tor shaxsiy motivlar turgan amallar uchun bo'lmasligi tavsiya etiladi.

3. Ijobiy munosabat bildirishda "ammo" kalimasi bo'lmasligi, ya'ni masalan, "tez o'qish bo'yichazo'rsan, ammo she'ryodlashingga kelsak..." kabilida fikrlamaslik, maqtashmi-mashtash.

4. Rag'batlantirish amaliyoti bolani sinfdagi boshqa o'quvchilarga qarama-qarshi qo'ymasligi lozim, buning uchun nafaqat natijaga erishganlar, balki harakat qilganlarni ham e'tirof etish va bunda aynan qaysi jihat maqtovga loyiqligini izohlab o'tish o'rinli.

5. Maqtov shaklidagi rag'batlantirishda shunchaki o'quvchiga yaxshi ko'rinish uchun maqtamaslik, bolaning tabiiy sifatleri (bo'yi-basti, xushbichimko'rinishi va h.) dagi ustunlikni e'tirof predmetiga aylantirmaslik, aynan bir holat uchun ikki martadan ortiq ijobiy munosabat bildirmaslik.

6. Rag'bat yaxshisi bolaning o'z ko'rsatkichlarini o'zining avvalgi natijalari bilan solishtirib, yaxshi tomonga o'zgarish bo'lganini samimiy e'tirof qilgan holda bo'lgani afzalroq, bolalarni bir-biriga solishtirishni suiste'mol qilmagan ma'qul.

Asosiysi, barchaning ko'zo'ngidagi rag'bat chinakamiga adolatli bo'lishi, ya'nirag'batga haqiqatdan arziydigan odam, arziydigan harakatlari bilan, yaxshi ma'nodagi "chirinish" evaziga erishadigan natija bo'lishi lozimligini eslatib o'tirish ham ortiqcha, deb o'ylaymiz.

1939-yilda Ayova universitetida Vendell Jensen 22 ta yetim bola ishtirokida hayratlanarli tajriba o'tkazadi.

Bolalar ikki guruhga bo'linib, gapirtiriladi:

1-guruh bolalari aniq va ravon nutq qilganliklari aytilib, maqtaladi.

2-guruh bolalarining kichik kamchiliklari ham shafqatsizlarcha masxara qilinib, oxir-oqibat ularning barchasiga "sen duduqsan", deb tamg'a qo'yiladi.

Natijada, hech qachon nutqida muammo bo'lmagana'lochi guruh o'quvchilarida duduqlanishning belgilari paydo bo'ladi.

Eng yomoni, ularda duduqlanish umrbod saqlanib qoladi. Shu sababli, ushbu eksperiment — "MonsterStudy" (Dahshatli Tajriba), deb nomlangan.

2001-yilda Davlat universiteti Ayova shtati eksperiment davomida jabrlanib, duduqlikdan aziyat chekayotganlardan rasman uzr so'raydi.

Xulosa o'zingizdan..

Turli multimedial vositalaridan foydalanish mavzuni rang-barang qilib, o'quvchilar tushunishiga yordam beradi.

Qolaversa, videolar ko'rish o'quvchi mavzuni yaxshiroq eslab qolishiga ham yordam beradi.

Ammovideodarsdan samarali foydalanishning ham o'zsiru asrorlari borligini bilarmidingiz?

Quyida videodarsdan maksimum foyda olishning 7 yo'lini keltirib o'taman:

1. Avvalamboro'quvchilarga videorolik ko'rishdankozlangan maqsadni aytib o'ting. Masalan:

Hozir Rim imperiyasi Sezar davri haqidagi videoni tomosha qilamiz. Bu bilan Sezar davridagi aholi turmush sharoitini ko'rib chiqamiz.

2. Yo'naltiruvchi savollar tayyorlab qo'ying (Guidingquestions). Misol uchun:

Videodagi qahramon qanday qiyinchilikka duch keldi? Uni qanday yengib o'tdi? Qaysi variant to'g'ri?

3. Videodan olingan ma'lumotlarni ustun shaklida tartiblash.

Masalan: paleolit, mezolit, neolit davriga xos bo'lgan ma'lumotlarni yozib qoldiring (Izohda video va ustunga misol keltirganman).

4. Rolikli to'xtatib, savol-javoblar qiling.

5. Eng oson uslublardan — videodan kim ko'proq ma'lumot yozib qoldirish o'yinini o'ynating.\*

6. Videoni pauza qilib, tushunarsiz qismlarini izohlang.

7. Videorolik tugagandan so'ng videoni birgalikda muhokama qiling.

Foydalandim:

1. Shaxsiy tajriba;\*

2. "UncommonSenseOfTeaching" BarbaraOakley;

3. Lawson et. al 2007;

([https://www.researchgate.net/publication/233476914\\_Guiding\\_Questions\\_Enhance\\_Student\\_Learning\\_From\\_Educational\\_Videos](https://www.researchgate.net/publication/233476914_Guiding_Questions_Enhance_Student_Learning_From_Educational_Videos))

"Passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga: o'zaro nazorat siri"

Ta'lim jarayonining eng muhim talablaridan biri — faollik.

Darsda kafolatli natijaga erishish uchun faqat o'qituvchining faolligi yetarli emas.

Dars samarali bo'lishi uchun ikki tomon — o'qituvchi va o'quvchi — birdek faol va hamohang harakat qilishi zarur.

Shu bois zamonaviy o'qitish uslublarining asosiy vazifalaridan biri — o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishdir.

Buning eng samarali yo'llaridan biri — o'quvchilarning o'zaro nazoratini yo'lgaqo'yish, ya'ni ularning bir-birining ishini baholash va tekshirish jarayonida ishtirok etishidir.

Muhim eslatma:

O'zaro nazoratni tashkil etishdan avval o'quvchilar bu jarayonning tartibi va algoritmini yaxshi anglab olishlari kerak. Shuning uchun dastlab o'qituvchijamoaviy nazoratni o'zi boshqarib o'tkazishi maqsadga muvofiq.

Bu bosqichda butun sinf bir o'quvchining javobini tinglaydi, so'ngrajamoaviy muhokama o'tkaziladi — yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi, xatolar to'g'rilanadi, asoslar keltiriladi. Keyingina o'quvchilar mustaqil ravishda o'zaro nazorat qilishga o'tadilar.

Quyida bu jarayonni tashkil etishning bir nechta metodik usullari keltirilgan.

Metodika №1. "Kartochkalar orqali o'zaro sinov"

O'quvchilarga mavzu bo'yicha ikki tomonlama kartochkalar tayyorlab kelish topshiriladi (3–5 ta).

Bir tomonida test savoli va javob variantlari,

Ikkinchi tomonida esa to'g'ri javob keltiriladi.

Darsda o'quvchilar juftliklarga bo'linib, o'rinlarini almashtiradilar. Ular bir-birlariga kartochka orqali savol berishadi. Javob to'g'ri bo'lsa, kartochka javob beruvchida qoladi, noto'g'ri bo'lsa — savol beruvchida. Dars oxirida o'qituvchi har bir o'quvchining nechta kartochka to'plaganini aniqlab, uning bilim darajasini baholaydi.

Metodika №2. "Tekshiruv qog'ozlari"

Har bir o'quvchiga savol yozilgan qog'oz beriladi. Qog'ozning orqa tomonida 3–4 o'quvchining ism-sharifi keltirilagan bo'ladi. O'quvchi shu bolalardan savolni so'raydi va natijani belgillaydi:

to'g'ri javob uchun "+",

noto'g'ri javob uchun "-",

chala javob uchun "?".

Dars oxirida qog'ozlari o'qituvchiga topshiriladi. Bir necha mashg'ulotdano'ng'o'qituvchi ushbu natijalar asosida o'zaro baholash statistikasini yuritishi mumkin.

Metodika №3. "Matnni to'ldir"

Juftlikdagi har ikki o'quvchiga bir xil matn beriladi, ammo:

birinchisining matnining bosh qismi to'liq, oxirida bo'shliqlar bor,

ikkinchisining esa aksincha. O'quvchilar navbat bilan bir-biriga matnni o'qib beradilar, so'ngra sherigining yordamida bo'sh qolgan joylarni to'ldiradilar. Keyin asl matn bilan solishtirib, xatolarni birgalikda tuzatadilar.

Metodika №4. "Guruhda tekshirish"

O'quvchilar 3 kishidan guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga uch qismli topshiriq beriladi.

Masalan, ona tili darsida murakkab qo'shma gapni tahlil qilishda:

birinchi o'quvchi asosiy bo'laklarni, ikkinchisi ikkinchi darajali bo'laklarni, uchinchisi o'z turkumlarini aniqlaydi.

Shundan so'ng ular qog'ozlarni almashtirib, bir-birining ishini tekshiradi, savollar beradi, xato deb hisoblagan joyni asoslaydi yoki qabul qiladi.

Yakunda guruh birgalikda umumiy yechimga kelib, natijani toza nusxada o'qituvchiga topshiradi.

Tarix darsida esa, masalan, "Buyukgeografik kashfiyotlar" mavzusida:

bir o'quvchi "sana",

ikkinchisi "shaxs",

uchinchisi "voqea" bo'yichama'lumotnito'ldiradi.

Yakunda ular birgalikda natijani taqdim etishadi.

Xulosa

O'quvchilaro'zaro nazoratini tashkil etish — darsni faol, erkin va interaktiv holda o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu usulning ba'zi kamchiliklari ham bor: xolislikni to'liqta'minlash qiyin va vaqt talab etiladi.

Shuning uchun buni o'quvchilarni mustaqil fikrlash va javobgarlikka o'rgatishning bir bosqichi sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

Tajribali o'qituvchilar bu yo'nalishda o'z usullarini yaratishlari tabiiy. Shu ma'noda, yuqorida keltirilgan metodikalar — kim uchundir eslatma, boshqalar uchun ilhom manbai, yana kimlar uchun metodik yangilik bo'lishi mumkin.

Eng muhimi — bu usullar orqali har bir o'quvchi faol, mustaqil va tahlilchi shaxs sifatida shakllanadi.

"O'ylashni o'rgatuvchi darslar": tafakkur amaliyotiga yo'l

Dunyoda fan ko'p, har biri o'zining o'rganadigan va o'rgatadigan predmetiga ega.

O'quvchi yoki talaba yillar davomida turli fanlarni o'rganadi.

Garchand tarix o'qituvchisi unga o'tmish haqida so'zlab bersa, biologiya darsida hayotning xilma-xil shakllari bilan tanishsa yoki matematikada abstrakt ifodalar olamiga sayohat qilsa ham — barcha ustozlarning umumiy maqsadi bir nuqtada tutashadi.

Bu maqsad — o'quvchini fikrlashga, tafakkur qilishga o'rgatish.

Faqat har bir fan bu vazifani o'z mazmuniga mos materiallar orqali amalga oshiradi.

Psixologiya fanidan ma'lumki, insonning fikrlash jarayoni tafakkur operatsiyalari — analiz, sintez, tizimlashtirish, umumlashtirish, qiyoslash, abstraktlash va tasniflash orqali amalga oshadi.

Dars jarayonida o'qituvchi, odatda, o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunib olishi uchun mashq va topshiriqlar beradi. Bu — ta'limiy vazifani bajaradi.

Biroq har bir darsning yana bir muhim vazifasi bor — rivojlantiruvchi vazifa.

Ya'ni, o'quv materialini boshqacha yondashuvda taqdim etish orqali o'quvchilarda tafakkur operatsiyalarini yanada faol rivojlantirish mumkin.

Quyida shunday usullardan ayrimlari keltiriladi:

1. "Turfa mezonlar" mashqi

Bu usulda o'quvchilarga mavzuga oid atamalar yoki so'zlarro'yxati (10–15 ta) beriladi va ularni turli belgilar asosida guruhlash talab etiladi.

Masalan, tarix fanidan:

“Stalingrad jangi”, “Fermopil jangi”, “Normandiya operatsiyasi”, “Loy jangi” va boshqalar.

O'quvchilar bu janglarni turli mezonlar asosida ajratishlari mumkin:

- qadimgi va zamonaviy tarix;
- Osiyo yoki Yevropada bo'lgan;
- Ikkinchi jahon urushiga tegishli yoki yo'qligi kabi.

Bu mashq o'quvchini mavzularga turli nuqtadan qarashga, uning muhim jihatlarini chuqurroqanglashgao'rgatadi.

2. “O'xshashlikni top” mashqi

Bu usul tafakkurning qiyoslash operatsiyasini rivojlantiradi.

O'quvchiga ikki narsa yoki hodisa beriladi va ularning o'xshash jihatlarini topish so'raladi.

Masalan:

- Geografiyada: “Avstraliya va Yaponiya”, “Yomg'ir va zilzila”
- Fizikada: “Ovoz va issiqlik”
- Adabiyotda: “Doston va she'r”

Bu usul o'quvchini narsalar orasidagi ichki bog'liqlikni anglashga va chuqur fikrlashga undaydi.

3. “Ortiqchani izla” mashqi

Bu usul analiz va sintez operatsiyalariga tayanadi.

O'quvchigato'rtta tushuncha yoki ma'lumot beriladi va ular orasidan mavzuga mos kelmaganini ajratish kerak bo'ladi.

Masalan:

• Tabiatshunoslikda: “Yomg'ir, do'l, qor, shudring” — “shudring” yerda hosil bo'ladi, boshqalari osmonda.

• Botanikada: “Sabzi, sholg'om, qovoq, rediska” — “qovoq” rangi va tuzilishi jihatidan farqli.

- Ingliz tilida: “I, he, she, it” — “I” bosh harf bilan yoziladi, boshqalar emas.

Bu usul o'quvchininoodatiy yondashuv bilan fikrlashga, oddiy ob'ektlarga yangi ko'z bilan qarashga o'rgatadi.

4. “Bir so'zda aytganda” mashqi

Bu usul umumlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'qituvchi bir nechta tushunchalarni aytadi, o'quvchi esa ularning umumiy belgisini topishi kerak bo'ladi.

Masalan:

• “Oy, quyosh, yer” — samo jismlari.  
• “Qirol Lir”, “Otello”, “Romeo va Julietta” — Shekspir asarlari, sahnalashtirilgan fojealar.

• “Buxoro amirligi”, “Qo’qon xonligi”, “Xiva xonligi” — O’rta Osiyodagi monarxiya davlatlari.

Bu usul orqali o’quvchi alohida faktlardan xulosa chiqarishni va jozibali umumiylikni topishni o’rganadi.

Xulosa

O’quv materialini faqat ma’lumot berish uchun emas, balki tafakkurni charxlash uchun ham xizmat qilishi kerak.

Darslarda shunday mashqlar ko’proqqo’llanilsa, yodlash emas, fikrlashga o’rgatish ustuvor bo’ladi.

Axir biz ko’pincha “o’quvchilarko’r-ko’rona yodlaydi, fikrlashmaydi” deb shikoyat qilamiz-ku.

Demak, shikoyatdan amaliyotga o’tish vaqti keldi — tafakkurni o’stiruvchi mashqlar va usullar bilan qurollanaylik!

So’kong’icho’quvchi va ustoz reaksiyasi

“Tilingni sug’uribolaymi?”,

“Chakaging o’chsin!”...

Ehtimol, ba’zi o’quvchilarog’zidan chiqayotgan “bodi-shodi” larga nisbatan o’stozlarko’nglidano’tadigan birinchi reaksiya shunday bo’lar.

Biroq buning uchun oliygoh tugatish, pedagog diplomini olish shart emas.

Ustoz yondashuvi pedagogika va psixologiyadan mutlaqo bexabar odamlardan farqlib o’lish kerakmasmi?

Ba’zi tajribali ustozlarning yondashuvlari:

1. “Dong qotish yoki xafaxonlik uslubidagi yondashuv”.

Haqoratli so’zlarni eshitib qolgach, ko’zlarni chaqchaytirib, yuzni burishtirib, bor shakl-shamoyil bilan hayratni, nafas qisilib qolgandek og’riqli qiyofani namoyon etish (“Nahotki, yana”, “Quloqlaringa ishonmayapman”, “O’zimko’rmasam, o’lay agar, ishonmasdim” va h.).

Ba’zi ustozlar hayratga qo’shib, xafalikni namoyon etishni ma’qulko’radi:

- “Ie, bu yog’i chakki bo’ldi-yu”;

- “Hurmat qilishingga arziysan, deb o’ylardim, vaziyat bunday ekan-ku”;

- “Mayli, sen aslida bunaqa ekaningni eslab qolaman”;

- “Sen haqingda yoqimli narsalarni eslashni xohlardim, nachora bunaqa tomonlarni ham eslab qolarkanmiz-da”.

2. “Kinoya va qochirimga asoslangan yondashuv”.

Nafaqat so’z, balki faol ishora bilan bola haddidan oshganini bildirish zarur.

Ba’zi ustozlardan “layfxak”:

- “Maktabga uydan yostig’ing yoki eski kovushingni olib kelmaysan-ku, bu so’zlarni ham tashlab kel”,

- “Bunday iflos so’zlar bilan o’zingni kir qilasan, deb o’ylamagandim, nazarimda sen toza inson eding”,

- “E’tibor bersang, “so’kish” ham haqorat, ham qandaydir bus-butun narsaning chokidan yirtilishini anglatadi. Balki shuning o’zi ham og’izdan chiqayotgan so’kinish seni boshqalar bilan bog’lab turgan rishtalarni kesishini anglatar”;

- “Qanday chiroyli va aqlli so’zlar, bakli ota-onalar majlisiga seni taklif etarmiz, shu yerda ushbu so’zlarniko’pchilik bilan baham ko’rarsan”.

3. “Ruxsat berilgan narsa unchalik qiziqmas degan printsipga asoslangan yondashuv”.

Bunda ustoz o’quvchiga aytib yurgan haqoratli so’zlarini tadqiq qilib, ko’rishni taklif etadi.

So’zning kelib chiqishi, ma’no-mazmuni, tarkibiy tuzilishi tahlil qilib ko’rilgach, uning asl ma’nosi, jamiyatda unga beriladigan bahoning sababi bola uchun ancha oydinlashib qoladi.

Tushunarli narsa o’z navbatida hammaning e’tiborini tortadigan, aytib maqtanadigan antiqa voqelik bo’lmay qoladi. Psixika faoliyati qonuniyatlariga ko’ra esa bunday masalalar qiziqish uyg’otmayqo’yadi.

4. “Sinonimlar lug’atidan foydalanishga asoslangan yondashuv”.

Avvaldan odatda bolalar davrasida uchraydigan haqoratli so’zlarning madaniyatli variantlaridan iborat shpargalka-lug’at tayyorlab qo’yiladi.

Yomon so’zni ishlatganda o’quvchiga ushbu madaniyatli so’zlarlug’atidan mos sinonimni topish buyurilib, uni eslab qolish va keyingi safar o’xshash vaziyatlarda ro’yxatdagiso’zlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tajribali ustozlar faoliyatini tahlil qilarkanmiz:

- ular orasida birov haqoraliso’zlar uchun jarimalar joriy etadi (yig’ilgan pulni sinf harajatlariga ishlatish sharti bilan, albatta);

- kimdir darsdan keyin olib qolib, o’sha haqoratli so’zlarniko’p marta yozdirib chiqish bilan jazolaydi (shu tariqa to’ydirib yuborishni ko’zlasa kerak);

- yana ba’zilar “Bu gapni xojatxonada aytasan, bu yerda emas” kabilida keskinlikka boradi.

Ochig’i qaysi usul samarali ekanini oldindan aytish qiyin.

Ko’p narsa vaziyatga, o’qituvchi individualligiga, bolalar bilan shakllangan munosabatiga bog’liqbo’ladi.

Har qalay bir narsa aniq — so’kong’ichga pedagog e’tiborsiz qolmasligi kerak, dong qotadimi, yuzini burishtiradimi, kinoya qiladimi, muhimi, reaksiyako’rsatsin, befarq bo’lmasin.